

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLARNI HAL QILISH VA SAVOL BERISH USULLARINING ROLI

Uktamova Ruxshona Utkir qizi

Students of Uzbekistan State World Languages University

ruuktamova009@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda savol-javob usulining va muammolarni hal qilish faoliyatlarining o'rnini batafsil o'rganilgan. Tanqidiy fikrlash nafaqat ma'lumotlarni yodlash, balki o'quvchilarni muammolarni tahlil qilish, mulohaza yuritish, dalillarni baholash va samarali qarorlar qabul qilishga o'rgatish jarayonini o'z ichiga oladi. Muammolarni hal qilish faoliyatlari, xususan, o'quvchilarga real hayotdagi muammolarni yechish imkoniyatini berib, ularning ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Tadqiqotda muammo yechish usullari, masalan, guruhli ishlash va "think-pair-share" kabi metodlar, o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirishi va natijada ular o'zlariga mustaqil fikr bildirishga qodir bo'lishi ko'rsatilgan. Shuningdek, savol-javob usuli ta'lim jarayonining ajralmas qismidir va o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Bunday usul, o'quvchilarga o'rganayotgan mavzu bo'yicha chuqurroq mulohazalar qilish, dalillarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Masalan, o'quvchilarga "Nima uchun bu sodir bo'ldi?" yoki "Qanday yechimlarni taklif qilasiz?" kabi savollarni berish ularning sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga va muammoni har tomonlama baholashga undaydi. Tadqiqotda shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ota-onalar va o'qituvchilarning roli muhim ekanligi ta'kidlanadi, chunki ular o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga va turli muammolarni kreativ tarzda hal qilishga rag'batlantirishi zarur. Natijada, ushbu ilmiy ishda o'quvchilarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muammolarni hal qilish faoliyatlari va savol-javob usullarini qo'llashning ahamiyati ko'rsatilgan. Bu usullar o'quvchilarga nafaqat akademik muvaffaqiyatni ta'minlash, balki ularning kelajakdagi hayotlarida muvaffaqiyatli qarorlar qabul qilishga ham yordam beradi.

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikrlash, boshlang'ich sinf o'quvchilari, muammolarni hal qilish, savol-javob usuli, ta'lim jarayoni, fikrlash qobiliyati, qaror qabul qilish, tahliliy fikrlash, ijodiy fikrlash, mustaqil fikrlash, problem-solving activities, questioning method, think-pair-share, guruhli ishlash, interfaol metodlar, so'rovga asoslangan ta'lim, dalillarni baholash, sabab-oqibat munosabatlari, reflektiv fikrlash, o'quvchilar faolligi, pedagogik strategiyalar, ta'lim samaradorligi, ota-ona va o'qituvchi roli.

Annotation: This scientific work thoroughly examines the role of the questioning method and problem-solving activities in developing critical thinking among primary school students. Critical thinking involves not only memorizing information but also teaching students to analyze problems, reason, evaluate evidence, and make informed decisions. Problem-solving activities, in particular, provide students with the opportunity to solve real-life issues, strengthening their creative thinking and critical analysis skills. The research highlights problem-solving methods such as group work and the "think-pair-share" technique, which enhance students' thinking processes, ultimately enabling them to express independent opinions. Additionally, the questioning

method is an integral part of the educational process and expands students' thinking horizons. This method helps students engage in deeper reflection on the topics they study, analyze evidence, and make decisions. For example, questions like "Why did this happen?" or "What solutions do you propose?" encourage students to understand cause-and-effect relationships and assess the problem from multiple angles. The research also emphasizes the significant role of parents and teachers in fostering critical thinking, as they must encourage students to think independently and solve various problems creatively. As a result, this scientific work demonstrates the importance of using problem-solving activities and questioning methods to develop critical thinking in students. These methods help students not only achieve academic success but also make effective decisions in their future lives.

Key words: Critical thinking, primary school students, problem solving, questioning method, educational process, thinking skills, decision making, analytical thinking, creative thinking, independent thinking, problem-solving activities, questioning method, think-pair-share, group work, interactive methods, inquiry-based learning, evaluating evidence, cause-and-effect relationships, reflective thinking, student engagement, pedagogical strategies, educational effectiveness, role of parents and teachers.

Аннотация: В данной научной работе подробно рассматривается роль метода вопросов и ответов, а также деятельности по решению проблем в развитии критического мышления у учащихся начальных классов. Критическое мышление включает в себя не только запоминание информации, но и обучение учащихся анализировать проблемы, рассуждать, оценивать доказательства и принимать обоснованные решения. Деятельность по решению проблем, в частности, дает учащимся возможность решать реальные жизненные задачи, укрепляя их творческое мышление и навыки критического анализа. В исследовании рассматриваются методы решения проблем, такие как групповая работа и метод "think-pair-share", которые развивают процессы мышления учащихся, в результате чего они становятся способными высказывать независимые мнения.

Кроме того, метод вопросов и ответов является неотъемлемой частью учебного процесса и расширяет кругозор учащихся. Этот метод помогает учащимся глубже размышлять о изучаемых темах, анализировать доказательства и принимать решения. Например, вопросы, такие как "Почему это произошло?" или "Какие решения вы предложите?", побуждают учащихся понимать причинно-следственные связи и всесторонне оценивать проблему. В исследовании также подчеркивается важность роли родителей и учителей в развитии критического мышления, поскольку они должны стимулировать учащихся к самостоятельному мышлению и творческому решению различных проблем.

Ключевые слова: Критическое мышление, учащиеся начальной школы, решение проблем, метод вопросов и ответов, образовательный процесс, навыки мышления, принятие решений, аналитическое мышление, творческое мышление, самостоятельное мышление, деятельность по решению проблем, метод постановки вопросов, think-pair-share, групповая работа, интерактивные методы, обучение на основе исследования, оценка доказательств, причинно-следственные связи, рефлексивное мышление, активность учащихся, педагогические стратегии, эффективность образования, роль родителей и учителей.

Kirish

Bugungi kunda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ahamiyati tez sur'atlarda ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshida asosiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi va aynan shuning uchun ham ularning yoshida bu qobiliyatni to'g'ri shakllantirib, rivojlantirish o'z o'rnida muhim sanaladi. Tanqidiy fikrlash – bu o'zaro munosabatlarni aniqlash, muammolarni hal qilish va xulosalar chiqarishga yordam beruvchi qobiliyatdir. Bu borada muammolarni hal qilish dasturi – bu o'quvchilarni muhim masalalarini hal qilish va mazmunli ma'lumotlar ishlab chiqarish orqali turli bilimlar yaratishga hissa qo'shishga undaydigan so'rovga asoslangan ta'lim strategiyasi. Ushbu usul o'quvchilarni ham amaliy ko'nikmalarini, ham mulohaza yuritish, tadqiqot o'tkazish, tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini mustahkamlaydi[1]. Bundan tashqari savol-javob usuli o'qish va o'qitish jarayonining muhim tarkibiy qismi va sifatli ta'lim hamda strategik fikrlashda muhim o'rin tutadi[2]. Ushbu ilmiy ishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda savol berish usuli va muammolarni hal qilish faoliyatlarining qanday rol o'ynashi o'rganiladi.

Muammolarni hal qilish faoliyati

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muammolarni hal qilish faoliyatini ta'siri bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni yechish ko'nikmalarini oshirishda samarali yo'l bo'lishi mumkin. Masalan, Portugaliyada o'tkazilgan tadqiqotda 4-sinf o'quvchilarida “think-pair-share” va “round table” usullarini qo'llash orqali kuzatish, tahlil qilish, dalillarni keltirish va xulosa chiqarish kabi tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlantirilgani qayd etilgan. Ushbu usullar guruhli faoliyat va muammolarni hal qilish orqali o'quvchilarni fikrlash jarayonlarini mustahkamlaydi va shu bilan birga, tadqiqot natijalari bu usullarning an'anaviy ta'limdan ko'ra samaraliroq ekanligini ko'rsatadi[3]

Boshlang'ivh sinf o'quvchilarini tanqidiy qarashlarini rivojlantirish uchun osonlar nima qilishi kerak?

Hunarmandchilik orqali ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilishni o'rgatish

Hunarmandchilik bolalarning ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradi va ularni muammolarni noodatiy usullar bilan hal qilishga o'rgatadi.

Bolalarga rangli qalamlar, loydan yasalgan materiallar, karton, skotch, qog'oz kabi narsalarni taqdim etilsa, ular bu narsalardan turli o'yinlar va narsalarni yasashadi.

Bunday “ochiq uslubdagi o'yinlar” bola uchun aniq qoidalarsiz bo'lgani sababli, ularga mustaqil g'oya yaratish va ijodiy fikrlash imkonini beradi. Bu bolalarning o'z tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi.

Muammoni bo'laklarga bo'lib hal qilish

Bu usul bolani qiyinchiliklarga bardosh berishga o'rgatadi. Misol uchun, bola maktabdagi biror darsdan yaxshi natijaga erisha olmasa, o'sha dars bo'yicha muvaffaqiyatsizlik ota va ona bilan birgalikda sabablarini aniqlash kerak.

Masalan:

- Nima uchun baho past? Bajarilmagan uy vazifalari bo'lsa, ular ro'yxatini tuzish va birma-bir bajarishga yordam berish zarur.
- Agar muammo sinfdoshlari bilan chalg'ish tufayli bo'lsa, bolani diqqatini jamlash usullari haqida o'ylab ko'rish kerak.

Bolaga har bir muammoni kichik qismga bo'lib ko'rsatish va uni asta-sekin yechish yo'llarini tushuntirish orqali bolani katta qiyinchiliklarni ham mustaqil hal qilishga o'rgatadi.

“Buzilgan eskalator” misolini tushuntirish

Ota-onalar farzandlarini hayotdagi muammolarni qanday qabul qilishni va ularga yechim topishni o'rgatish uchun “buzilgan eskalator” haqidagi hikoyani tushuntirish mumkin.

Misolda eskalator ishlamay qolganida odamlar yordam chaqirib, joyida turib qoladi. Bola bu holatni ko'rib: “Shunchaki yurib tushish kerak-ku!” deb kulishi mumkin.

Shunda unga savol berish kerak: “Ular nega tushishmadi deb o'ylaysan?” (Ehtimol, qanday harakat qilishni bilmagandir yoki boshqa birovga bog'lanib qolgandir).

Shundan keyin bolaga qiyinchiliklarni o'zi mustaqil hal qilish muhimligini tushuntirish va unga har qanday muammoda birinchi qadamni qo'yish kerakligini o'rgatish zarur.

Savol berish usulining roli

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash qobiliyatiga samarali ta'sir qiluvchi usullardan yana biri bu o'quvchilarga savol berishdir. O'quvchilar o'rtasida savol-javob mashg'ulotlarini tashkil qilish, ularda savolga nisbatan javob izlash, biror masala bo'yicha berilayotgan javob to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi haqida mulohaza yuritish, javoblarni tahlil qilish va baholash va oxirida qaror qabul qilish qobiliyatini o'stiradi. Savol-javob turlicha metodlarda – yozma, og'zaki, test va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Masalan, 2020-yil 2-martdagi Durrington tadqiqot maktabi shuni ko'rsatadiki, savol-javob usuli chuqur fikrlashni rag'batlantiruvchi avzalliklar beradi. Masalan: “Nima uchun bu sodir bo'ldi?” yoki “Qanday yechimlarni taklif qilasiz?” kabi savollar o'quvchilarni malumotlarni chuqurroq tahlil qilishga va sabab-oqibat aloqalarini izlashga undaydi[5]. Natijada bu bolalardagi tanqidiy fikrlash jarayonini rivojlantiradi.

Yosh o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini savollar yordamida rivojlantirish

Tanqidiy fikrlash oddiygina faktlarni bilishdan ko'ra ko'proq narsani anglatadi. Bu fikrlash turli dalillarni tahlil qilish, mantiq va xulosalarga asoslanishni o'z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash orqali o'quvchilar faktlarni yodlash yoki darslik javobini berish o'rniga, mavzuning asl mohiyatini tushunishga va o'z fikrlarini shakllantirishga harakat qilishadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun 15 ta savol:

Tanqidiy fikrlashni qanday rivojlantirish mumkin? Bu jarayonni mukammal savollar berish orqali amalga oshirish mumkin!

Quyida bolalarning qutidan tashqarida fikrlashini rag'batlantirish uchun o'qituvchilar va ota-onalar berishi mumkin bo'lgan 15 ta savol mavjud.

1. Buni qanday bilding?

Bu savol o'quvchilarni o'z bilim manbalarini, masalan, og'zaki ma'lumotlar, darsdagi bilim yoki yangiliklar orqali tekshirishga undaydi.

2. Agar qarama-qarshi tomonda bo'lsang, fikringni qay tarzda o'zgartirar eding?

Bu savol bolalarni boshqa bir kishining nuqtai nazaridan vaziyatni ko'rishga undaydi va turli yondashuvlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

3. Bu muammoni qanday hal qilgan bo'larding?

Oddiy muammolar uchun ijodiy yechimlar topish hayot uchun muhim ko'nikma hisoblanadi. Bu savol yoshlarning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi.

4. fikrga qo'shilasanmi yoki yo'q — nega?

Har qanday bahsda bir tomonning dalillarini ko'rib chiqish, tahlil qilish va ongli tanlov qilishni o'rgatadi.

5. Nega? Nega? Nega?

Bir savolga javob olgandan so'ng yana qayta-qayta “Nega?” deb so'rash orqali talabalar chuqurroq fikrlashga undaladi. Lekin, ularni xafa qilmaslik uchun chegarani bilish lozim.

6. Bu muammoni kelajakda qanday oldini olishimiz mumkin?

O'quvchilarga muammoning sabablari ustida ishlash va uning qaytalanishini oldini olish uchun choralar ishlab chiqishni taklif qiling. Bu ularni kelajakdagi masalalarda yanada ehtiyotkor bo'lishga o'rgatadi.

7. Bu nega muhim?

Bu savol o'quvchilarga tarixiy voqea yoki matematik tushuncha kabi mavzularning bugungi kundagi ahamiyatini anglashga yordam beradi.

8. Bu masalaga boshqacharoq qarash mumkinmi?

Ko'pincha bitta qarashni o'rganib, uni yagona yoki eng to'g'ri usul sifatida qabul qilish oson. Farzandlaringizni muammoni boshqa nuqtai nazardan ko'rib chiqishga undash orqali ularning fikrlash doirasini kengaytiring.

9. Menga misol keltira olasanmi?

Muayyan masalani chuqurroq tushunish uchun hayotiy tajribalardan misol keltirish yoki yangi misollar o'ylab topish tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

10. Bu boshqacha yakunlanishi mumkin edimi?

Voqealar yakunini o'zgartirish haqida o'ylash ijodkorlik va tahliliy yondashuvni talab qiladi. Bu savol “hozirgi holat” o'rniga “nima bo'lishi mumkin edi?” haqida mulohaza qilish imkonini beradi.

11. Bu ishni bajara olganimizni qachon bilamiz?

Bu savol o'quvchilarni muvaffaqiyatning belgilari nima ekanligini va uni qanday o'lchash mumkinligini o'ylashga undaydi, ayniqsa, natijalar aniq bo'lmagan holatlarda.

12. Nega bu savolni berding?

Bu savolga darhol javob berish o'rniga, o'quvchilarni savolning o'zining ahamiyati haqida o'ylashga undaydi. Bu ularga tanqidiy fikrlashni chuqurlashtirishga yordam beradi.

13. Bunga kim ta'sir qilishi mumkin?

O'quvchilar, kelajakdagi yetakchilar sifatida, har qanday qaror qabul qilishda kim va qanday ta'sir ko'rsatishini hisobga olishlari kerakligini tushunishlari muhim.

14. Bu hikoya bizning hayotimiz haqida nima o'rgatadi?

Adabiyotdan ijtimoiy fanlarga, o'quvchilar turli hikoyalar bilan tanishadilar. Ularni bu hikoyalar bilan chuqurroq ishlashga va ular o'z hayotlariga qanday bog'lanishini o'ylashga undang.

15. Nega bu muammo?

Biror narsani muammo sifatida qabul qilishdan ko'ra, uning muammo ekanligini tahlil qilish o'quvchilarga o'zlarining kuchli muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.[6]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muammolarni hal qilish faoliyati va savol-javob metodlarining o'rni juda katta. Tanqidiy fikrlash, o'quvchilarning mantiqiy yondashuv, tahliliy fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, bu esa nafaqat akademik muvaffaqiyatni, balki hayotdagi muammolarni hal qilishda ham foydalidir. Savol berish usuli esa, o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ularni muammolarga yondashuvni chuqurlashtiradi va ijodiy qarorlar qabul qilishga undaydi. Ota-onalar va o'qituvchilar bu jarayonda muhim rol o'ynab, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va kreativ yechimlar topishga rag'batlantirishi lozim. Shu tariqa, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o'quvchilarga yanada samarali va mukammal ta'lim berish, shuningdek, kelajakdagi muvaffaqiyatlarga erishishda muhim omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Marwa Yasien Helmy Elbyaly and Abdellah Ibrahim Mohammed Elfeyk, "The impact of problem-solving programs in developing critical thinking skills", European Chemical bulletin, 2023
2. Nappi, Judith S. (2017). The Importance of Questioning in Developing Critical thinking. Delta Kappa Gamma Bulletin, 84(1),30 <https://pdf4pro.com/view/the-importance-of-questioning-in-developing-critical-7e373b.html>
3. Rice, Beth. Increasing Critical Thinking Skills of the Fourth Grade Student through Problem Solving Activities. 1992. Nova University
4. Ashley Cullins. 20 Sep. How to Teach Problem-Solving Skills to Children and Preteens. Big Life Journal. Biglifejournal.com
5. Durrington Research School. (2020, March 2). What does the evidence say about questioning? Retrieved from Durrington Research School (<https://researchschool.org.uk/durrington/news/what-does-research-evidence-tell-us-about-effective-questioning>)
6. Leming, M. (n.d.). 15 critical thinking questions for kids: Spark curiosity and problem-solving skills. The Hun School of Princeton. Retrieved from <https://www.hunschool.org> (<https://www.hunschool.org/>)